

FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARINI YOZISH ORGANLARI XODIMLARINING SONINI BELGILASH TARTIBI

A.Tashxodjayeva

Qibray tumani FHDY bo'limi mudirasi

M.Usmanova

Qibray tumani FHDY bo'limi ikkinchi toifali inspektori

J.Xudoyberdiyev

Qibray tumani FHDY bo'limi birinchi toifali inspektori

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari jamiyat hayotining eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Nikoh, tug'ilish, o'lim, ism-sharifni o'zgartirish, farzandlikka olish kabi dalolatnomalarni qayd etish orqali ular fuqarolarning shaxsiy huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi davlat xizmatlarini amalga oshiradi. Shu bois, FHDYO organlarining faoliyati samaradorligi bevosita ularning moddiy-texnik ta'minoti, tashkiliy tuzilmasi va xodimlarining soni bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari to'g'risida"dagi Nizom (keyingi o'rinlarda — Nizom)da mazkur organlarning faoliyati, vazifalari va huquqlari, shuningdek, xodimlar sonini belgilash tartibi aniq normativ asosda belgilab qo'yilgan.

Xodimlar sonini belgilashning normativ asoslari:

Aholi soni va zichligi – hududda yashovchi aholining umumiy soni va joylashuv zichligi xodimlar sonini belgilashda asosiy omillardan biridir.

Fuqarolik holati dalolatnomalari qaydi hajmi – yil davomida qayd etiladigan tug‘ilish, nikoh, ajrim, ism-sharif o‘zgarishi, farzandlikka olish va o‘lim holatlarining statistikasi inobatga olinadi.

Hududiy va ijtimoiy xususiyatlar – migratsiya darajasi yuqori bo‘lgan, xalqaro aloqalari keng hududlarda (poytaxt, turistik zonalar) yuklama ko‘proq bo‘ladi.

Adliya vazirligi vakolati – shtat jadvali O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Mahalliy hokimiyat bilan kelishuv – hududiy organlarda xodimlar soni bo‘yicha takliflar mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishiladi.

FHDY bo‘limlari va FHDY arxivlari xodimlari soni to‘g‘risidagi takliflar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan Vazirlikka kiritiladi. FHDY bo‘limlarida — mudir va 1-toifali inspektor, FHDY arxivlarida — mudir, 1 nafar 1-toifali va 1 nafar 2-toifali inspektor lavozimlari joriy etiladi. FHDY bo‘limlari inspektorlarining ikkinchi va undan keyingi lavozimlarini belgilashda jamlangan holda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:

a) tegishli tuman va shahar hududida ro‘yxatdan o‘tkazilgan quyidagi fuqarolik holati dalolatnomalari (tug‘ilish, o‘lim, nikoh va nikohni bekor qilish), dalolatnoma yozuvlariga kiritilgan o‘zgartirish, tuzatish va qo‘shimchalar, familiya, ism va ota ismini o‘zgartirishlar, berilgan takroriy guvohnomalar va ma’lumotnomalar, xalqaro shartnomalar bo‘yicha ko‘rsatilgan huquqiy yordamlar va ekstritorial tamoyil asosida ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘rtacha oylik soni.

Bunda, bir xodimga (mudir va ish yurituvchi bundan mustasno) ro‘yxatdan o‘tkazilgan fuqarolik holati dalolatnomalari, dalolatnoma yozuvlariga kiritilgan

o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar, familiya, ism va ota ismini o'zgartirishlar, berilgan takroriy guvohnoma va ma'lumotnomalar, xalqaro shartnomalar bo'yicha ko'rsatilgan huquqiy yordamlar va ekstritorial tamoyil asosida ko'rsatilgan xizmatlarning soni oyiga kamida 250 — 300 ta bo'lishi kerak;

b) xizmat ko'rsatiladigan tuman va shahar hududidagi aholi soni. Bunda, xizmat ko'rsatiladigan hudud aholisi soni 50 ming kishidan 100 ming kishigacha bo'lganda — 1 nafar inspektor, 100 ming kishidan 150 ming kishigacha bo'lganda — 2 nafar inspektor, 150 ming kishidan 200 ming kishigacha bo'lganda — 3 nafar inspektor va 200 ming va undan ortiq kishi bo'lganda — 4 nafar inspektor lavozimi joriy etiladi.

Amaliy jihatlar

Sifatli xizmat ko'rsatish — xodimlar sonining to'g'ri belgilanmasi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishga yordam beradi.

Navbatlarning kamayishi — yuklama oshgan hududlarda qo'shimcha shtat birligi ajratilishi ortiqcha navbatlar va byurokratik to'siqlarni kamaytiradi.

Professional mutaxassislar tayyorlash — shtat birliklari belgilanishi bilan bir qatorda xodimlarning malaka darajasini oshirish muhim vazifa bo'lib qoladi.

Hududlar o'rtasida tenglik — barcha hududlarda fuqarolarga teng sharoitda davlat xizmatlari ko'rsatiladi.

Dunyo tajribasida FHDYO organlari xodimlarining sonini belgilashda ham shunga o'xshash omillar inobatga olinadi:

Rossiya Federatsiyasi — ZAGS organlari shtatlari aholining soni va yillik qaydlar hajmiga qarab belgilanadi.

Germaniya – tug‘ilish, nikoh va o‘lim bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar asosida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan shtat ajratiladi.

Fransiya – xodimlar soni mahalliy meriyalar qoshida faoliyat yurituvchi fuqarolik holati bo‘limlari uchun ajratilgan mablag‘ va yuklamaga ko‘ra belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 550-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari xodimlarining sonini belgilash tartibi aniq va tizimli tarzda ko‘rsatib berilgan. Bu tartib aholiga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini oshirish, fuqarolarning huquqlarini kafolatli ta’minlash hamda organlarning samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur qaror O‘zbekistonda huquqiy davlat qurilishi va “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyilini hayotga tatbiq etish yo‘lida muhim qadamdir.